

## TERMITLARGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR

**Qurbonboyev Javohir Xamdambek og'li.<sup>1</sup>**

**Doschanova Manzura Babajanovna.<sup>2,3</sup>**

<sup>1</sup>*Urganch Davlat Universiteti, Urganch*

<sup>2</sup>*Urganch Davlat Universiteti, Urganch*

<sup>3</sup>*Xorazm Ma'mun akademiyasi, Xiva [mamun1000@mail.ru](mailto:mamun1000@mail.ru)*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada termitlar rivojlashiga salbiy ta'sir qiluvchi atmosfera xavosi nisbiy namligi chegeralari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.*

Atropogen sharoitlarda – uy-joy, inshootlarda va buyumlarga termitchalik qat'iy va doimiy zarar etkazuvchi biror bir hasharot yo'q. Dunyoda termitlarning 3000 ga yaqin turi aniqlangan bo'lsada, turli inshoot va boshqa qurilish binolariga ularning taxminan 10 foyizigina zarar etkazadi. SHundan 20 xil turi jiddiy zararkunanda hisoblanadi. Markaziy Osiyoda termitlarning 4 ta turi qayd qilingan. Termitlar xalq xo'jaligiga jiddiy talofat etkazmoqda. 1948 yili zilzila tufayli Turkmaniston poytaxti Ashxobod shahrining vayronaga aylanishiga ham termitlar etkazgan zarar asosiy sabab bo'lgan. Termitlar masalasi dunyo miqyosidagi yirik muammolardan hisoblanadi. CHunki ular tufayli bino va inshootlarga juda katta miqdorda zarar etkazmoqda. Masalan, birgina Amerikaning 1982 yili termitlardan ko'rgan zarari 1 milliard 170 mln. dollarga etgan. Turkiston termiti mamlakatimizning ko'pchilik hududlarida aholi turar joylarini, tarixiy madaniy obidalar, inshootlar va boshqa qurilish binolarining yog'och qismlarini kuchli zararlab misli ko'rilmagan darajada ziyon etkazayotganligini alohida qayd qilish zarur. Garchand respublikamiz ayrim hududlarida Turkiston termitining bioekologik xususiyatlari o'rganilib, turli davrlarda ulardan zararlanishning oldini olish hamda qirib yo'qotish usul va vositalari ishlab chiqilgan bo'lsada, ammo Xorazm vohasi sharoitida termitlarning tarqalish, ularning hayot tarzi etarlicha o'rganilmagan. Ularga qarshi kurashning tavsiya etilgan usul va vositalari etarlicha samara bermasligi yoki tavsiya etilgan asosiy kimyoviy preparatlarning odamlarga, shuningdek issiqqonlik hayvonlarga va atrof muhitga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatishi tufayli ishlab chiqarishdan olib tashlangan. Ushbu dalil va sabablar Xorazm vohasida termitlar yuzasidan fundamental, ilmiy va amaliy tadqiqotlarni chuqurlashtirish nihoyatda dolzarb masala ekanligidan darak beradi.

Termitlarga qarshi kurashda tashqi muhit omillariga ta'sirini o'rganish, omillar maksimal, minimal, optimal ko'rsatkichlarini aniqlash ularni antropogen sharoitlardan haydash, yoki ularni kasallikka moyilligini oshirish imkoniyatlarini beradi. Biz xozirda termitlar laboratoriyasida termitlarni atmosfera havosining

namligiga munosibatini o'rganish yuzasidan izlanishlar olib bordik. Buning 3 litrlik silindrsimon shisha idishlar olib ichiga 50 tadan termitlar solindi. Namlikni nazorat qilish maqsadida yumshoq filtr qag'ozni zarur miqdorda namlab idish solindi. Idish ichidagi havoning namligi 90-99%, 65-70% va 45-50% qilib uch varianda 3 ta takroriylikda tajribalar qo'yildi. Idishga atmosfera havosi namligi va temperaturasini o'lchab boruvchi elektron qurilma joylashtirildi. Idishlar Artel konditsioneri oldida 28<sup>o</sup>S temperaturada saqlandi. Har kunlik atmosfera namligi va nobud bo'lgan termitlar xisob-kitob qilib borildi.

Olingan natijalar 1-jadvalda ko'rsatilgan. Atmosfera havosining namligi 45-50% bo'lgan idishlarda tajriba qo'yilgandan 3 kundan so'ng 18 dona (36%), 6 kundan so'ng 27 dona (54%), 12 kundan so'ng 5 dona (10%) nobud bo'ldi.

Atmosfera havosining nisbiy namligi 65-70% bo'lgan idishlarda 3 kungacha termitlar nobud bo'lishi kuzatilmadi. 6 kundan so'ng 7 dona (14%) nobud bo'ldi. 12 kundan so'ng 10 dona (20%), 15 kundan so'ng 16 dona (32%), 18 kundan so'ng 17 dona (34%) nobud bo'ldi (1-rasm).

Nisbiy namlik 95-99% bo'lgan idishlarda 6 kungacha termitlar nobud bo'lishi kuzatilmadi. 12 kundan so'ng 5 dona (10%), 15 kundan so'ng 7 dona (14%), 18 kundan so'ng 13 dona (26%), 21 kundan so'ng 10 dona (20%), 24 kundan so'ng 15 dona (30%) termitlar nobud bo'lishi kuzatildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki muhitda havoning nisbiy namligi kamayishi termitlarning zararli ta'sir ko'rsatib ularni immunitetini kamayishiga va nobud bo'lishi sabachi bo'lishi mumkin.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullaev I.I Turkiston termitining (*Anacanthotermes turkestanisus* Jacobs) entomopatagen zamburuglarga moyilligi.// Uzbek.biologiya jurnali. 2001.No:2.- b.49-52.
2. Alimdjanov R.A. Instruksiya po borbe s termitami, povrejdayushimi jilye i xozyaystvennyye pomesheniya.// In-t zool i parazit. AN UzSSR, inform. Soobsh.- No:51.- Tashkent.- 1971.-c.14
3. Baeva V.G. Muminov N.N., Lukyanova S.N., Pokivaylov A.A., Termiti (isoptera) Tadjikistana i merы borbe s nimi. Dushanbe.-1993.-c.38.
4. Gorshin S.N. Vajneyshie voprosy zashity drevesiny ot razrusheniya termitami.// V sb. Termity i merы borbi s nimi//. Ashxabad.- 1968.- s.142-151
5. Kakaliev K. Bolshoy zakaspiyskiy termit-vreditel stroeniy v Turkmenii.// "Turkm SSR BIlm. Akad. Xabarlarы./ Biol. ilym. ser., izv AN Turkm .SSR Ser. biol.N." 1968.- No:3.-s. 88-91.
6. Kakaliev K. O nekotoryx voprosax biologii i ekologii bolshogo zakaspiyskogo termita (*Anacanthotermes ahngerianus* Jacobs) v Turkmenii.// - V sb Termity i merы borby s nimi//. Ashxabad:- 1968a.-s.28-42.
7. Kakaliev K., Soyunov O. Izuchenie ekologii termitov YUjnoy Turkmenii.// 1977.-Izv.AN TSSR.-Ser.biol.nauk.-No:1.c.- 32-78
8. Kulumbetova T., i dr. Ekologicheskie predposylki rasprostraneniya i vredonosnosti turkestanskogo termita v yujnom priarale.// Ekologicheskie osnovы izucheniya problem priaralya.// Materialы mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii. Nukus,1999.-s.71.